

Italiyaga tashrif doirasida qator kelishuvlarga erishildi

Xabar berganimizdek, Toshkent shahridagi Turin Politexnika universiteti rektori J.Sh. Inoyatxodjaev O'zbekiston delegatsiyasi tarkibida, avtomobilsozlik va boshqa sanoat sohalarida rivojlangan mamlakatlarda tatbiq qilingan eng zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo'yicha kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tatbiq etish borasida keng qamrovli hamkorlik aloqalarinin o'rnatish va kelishuvlarga erishish maqsadida hozirda Italiyada xizmat safarida.



Xususan, kuni kecha Italiyaning Turin Politexnika universiteti bilan hamkorlikda "Sanoat ishlab chiqarish texnologiyalari" dual ta'lim yo'nalishida "Sanoat 4.0" raqamli texnologiyalar, ilg'or avtomatlashtirish, "Tejamkor ishlab chiqarish" bo'yicha

texnik ko'nikmalarga ega bo'lgan kadrlarni 3 yillik o'quv reja asosida tayyorlash bo'yicha kelishuvga erishildi. Unga ko'ra, 2023-2024 o'quv yilidan Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida ushbu yo'nalishda 100 nafar kadr tayyorlash imkoniyati yaratiladi. O'quv jarayonlarining uchdan bir qismi nazariy bilimlar olishga, qolgan qismi esa sanoat muhandisligi bo'yicha yuqori professional amaliy bilim va ko'nikmalarga hamda bo'lajak mutaxassislarni laboratoriya mashg'ulotlariga jalb qilish orqali tayyorlashga qaratiladi.

Uchrashuv doirasida Italiyaning CIM4.0-kompetentsiya markazi bilan hamkorlik borasida muzokara o'tkazildi. Andijon mashinasozlik institutida Toshkent shahridagi Turin Politexnika universitetining "Sanoat 4.0 akademiyasi" tashkil etilishiga kelishildi. Akademiyada avtomobilsozlik va boshqa sanoat sohaslarida rivojlangan mamlakatlarda tadbiq qilingan eng zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo'yicha kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi tashkil etiladi.



Tashrif doirasida Italiyaning Juventus futbol akademiyasi bilan hamkorlikni kengaytirish borasida uchrashuv o'tkazildi. Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida tashkil qilingan "Juventus Academy Tashkent" akademiyada ishtirok etadigan 50 nafar O'zbekistonlik yoshlarga Italiyada o'tkaziladigan "YUVENTUS" Xalqaro turnirida ishtirok etish va Yevropaning yetakchi jamoalari bilan uchrashish imkoniyatini yaratish va hamkorlikni kengaytirish muhokama qilindi.